

DONO AYOL

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonlarda bir podsho bor ekan. O‘sha podshoning bir yomon ayoli bor ekan. O‘zi tug‘mas ekan, podsho boshqa ayol olay desa qo‘ymas ekan. Qitmir, badkirdor ekan. Yuzi oq bo‘lsa ham ichi qora ekan, undan ko‘plarning ko‘ngli yara ekan. Podshoning o‘lgan ayolidan bir qiz ham qolgan ekan. «Qiz bola — tuz bola» deb qizini xafa qilaverar ekan. Lekin qiz podshoning yakka-yu yagona farzandi bo‘lsa ham uni yaxshi ko‘rar ekan, podshoning qizi juda chiroyli, dono va chevar ekan. Qiz otasiga ko‘p aqlli gaplarni aytar ekan, lekin podsho ayolining so‘ziga kirib, qizi aytgan gaplarga amal qilmas ekan, so‘ziga kirmas ekan, bir gapda turmas ekan. Qizi olim ekan, podsho zolim ekan. Kunlardan bir kun podsho bog‘da vazirlari bilan hovuz ichidagi oltin baliqlarni tomosha qilib, orom olib o‘tirgan ekan, birdan hovuz bo‘yidagi qayrag‘och tepasiga chiroyli bir qush kelib qo‘nibdi. Keyin podsho tomonga qarab qichqirib, sayrabdi. Podsho odamlariga shu qushni tutinglar, deb buyruq beribdi. Biroq hech kim tuta olmabdi. Qush uchib ketib, yana aylanib kelibdi-da, yana haligiday qichqirib, sayrabdi. Podsho vazirlariga: - «Mana shu qush nima deyapti, shuni aytib berasizlar», — deb buyruq beribdi. Vazirlar nima deyishlarini bilmay, og‘izlarini ochib o‘tiraveribdilar. Keyin podsho g‘azab qilib:

— Kim shu qushning aytganini topib kelmasa, nima deganini bilib kelmasa, o‘zi o‘limda, mol-u podsholikniki! — debdi.

Vazirlar hayron bo‘lib: «Bu balodan qanday qutulamiz?» — deb zo‘r tashvish chekibdilar. Vazirlar yurtni aylanib, dono olimlardan qushning nima deganini so‘rabdilar. Hech kim javob berolmabdi. Eng oxirida vazirlardan bir aqllirog‘i:

Bu so‘roqqa podshoning qizi javob berar, agar u ham berolmasa, hammamiz mol-jonimiz bilan xayrlasha bersak ham bo‘ladi, — dedi. Qirq vazir yashirincha borib, podshoning qizidan so‘rabdilar. Podshoning qizi:

Agar otamga aytmasanglar, men savolingizga javob beray, bordi-yu, otam bilib qolsa, unda meni tirik qo‘ymaydi, — debdi. Vazirlarning hammasi so‘z berishibdi. Hovuz bo‘yidagi qayrag‘och tepasida o‘tirgan qush: «Erkakni yaxshi qiladigan ham ayol — yomon qiladigan ham ayol» — degani. Qushning joniqib sayraganining ma‘nosi shunda, — deb javob beribdi. Vazirlar juda suyunib, hammalari podshoning oldiga borishibdi. Qiz nima degan bo‘lsa, hammasini podshoga gapirib beribdilar. Podsho g‘azablanib:

— Sizlarga buni kim aytdi? — deb so‘rabdi.

— O‘zlarimiz topdik, — debdilar.

— Sizlarga birov aytgan, tez javob bering, bo‘lmasa hammangizni dor ostiga yuboraman! — deb javob beribdi. Vazirlar qo‘rqqanlaridan:

— Qizingiz aytdi, — debdilar.

Podsho:

— Qizimni dor ostiga yuboring! — deb buyruq beribdi. Shunda vazirlarning kattasi:

— Podshohim, o‘z qizingizni el orasida dorga yubormang, yaxshisi, cho‘l-biyobonga yuboring, hech kim bilmaydi, - debdi. Podsho ko‘nibdi.

Vazirlaridan ikkisi ikki jallodni olib, qizning qo‘l-oyoqlarini bog‘lab, otga o‘ngarib, cho‘l-biyobonga qarab ketibdilar. Vazirlar bu qiz gunohsiz, bizni o‘limdan saqlab qoldi, biz ham buni o‘ldirmaylik, degan maslahatga kelibdilar, qizni sahroga olib borib qo‘l-oyoqlarini yechib yuboribdilar-da:

— Hamma balo sening aqlingda, xafa bo‘lma, qiz, ajaling yetmagan bo‘lsa, kuningni ko‘rib ketarsan, — deb bir ko‘ylakni qizil rangga bo‘yab, podshoga keltirib beribdilar.

Endi so‘zni podshoning qizidan eshiting:

Qiz cho‘l-biyobonda yolg‘iz o‘zi qolib, nima qilishini bilmay, boshi oqqan tomonga qarab ketaveribdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Kechga borib, uzoqdan bir yolg‘iz gujumni ko‘ribdi. Shu gujum tomonga qarab ketaveribdi. Yaqin borib qarasa. gujumning tagida bir bostirma, bostirmaning oldidan tiniq bir chashma shildirab oqib turibdi. Qiz asta borib, uyning ichiga qarabdi. Uyning ichida hech kim yo‘q, yerga yirtiq gilam tashlangan, har yer-har yerda bo‘yra cho‘plari sochilib yotibdi. Qiz uyga kirib haligi gilam ustiga yotibdi-da, qattiq charchaganligidan tezda uxlab qolibdi.

Bir ozdan keyin qizning qulog‘iga uyqu aralash bir ovoz eshitilibdi.

Otim Qulman devona

Odamlardan begona,

Turar joyim vayrona,

Dunyo bevafo ekan.

Qiz ko‘zini ochib qarasa, sochlari jingalak-jingalak bo‘lib o‘sgan, ko‘zlari o‘tdek chaqnaib yonib turgan bir badburush odam tepasida turgan emish. Qiz irg‘ib o‘rnidan turibdi, haligi odam qah-qah urib kulib, o‘z ashulasini aytaveribdi. Qiz bir oz o‘ziga kelib, undan. «Siz kimsiz?» — deb so‘rabdi.

Lekin u odam aljirayveribdi. Qiz: «Bu yomon odam ekan», — deb o‘ylabdi. Qiz haligi odamni boshlab, chashmaning yoqasiga olib boribdi. Uning sochlarini olibdi, soqollarini tarabdi, ust-bosh kiyimlarini yuvib beribdi. Kunlar o‘taveribdi. Qiz turli giyohlardan dori tayyorlab, haligi odamni davolay boshlabdi. Olti oy deganda haligi devona tuzalibdi. Shunda u odam o‘z boshidan o‘tgan voqealarni bir-bir aytib beribdi.

— Mening bu ahvolga tushishimga ayolim sababchi: — kambag‘alsan, mol-dunyong yo‘q, — deb meni haydab yubordi, ayolimni yaxshi ko‘rardim, ikki yil sargardon bo‘lib yurdim, undan keyin nima bo‘lganini o‘zim ham bilmayman, — debdi.

— Qiz Qulmanga juft-u halol bo‘lib, birga yashayveribdi. Yigit dehqonchilik qilar ekan, ov ovlar ekan, xotini bo‘lsa odamlarni davolar ekan, gilam to‘qir ekan, kashta tikar ekan. Oradan ikki yil o‘tibdi. Turmushlari juda yaxshi bo‘lib ketibdi. Bir o‘g‘il, bir qiz ko‘rishibdi.

Kunlardan bir kun Qulmanning ayoli eriga:

— Agar ko‘nsangiz, podshoni vazirlari bilan bir ziyofatga chaqiramiz,

— debdi. Qulman ham ko‘nibdi. Podsho vazirlari bilan Qulmaning uyiga mehmon bo‘lib kelibdi. Qiz podshoga bo‘lgan voqealarning hammasini birma-bir

aytib beribdi. Podsho yomon ayolining jabridan joni azobda qolgan ekan, uning ustiga qizidan ajralib, farzandsizlik o'tida kuyar ekan. Keyin hammalari yurtga qaytib kelishibdi. Podsho yangidan to'y-tomosha qilib qizini Qulmanga nikohlab beribdi. Qulman yurtga podsho bo'lib, hammalari murod-maqсадlariga yetishibdi. «Erkakni yaxshi qiladigan ham ayol - yomon qiladigan ham ayol», - degan naqlning ma'nosi shu ekan.

“Oqila qiz” kitobidan